



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



№10
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 98 sahifa,
3-oktyabr, 2025-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

The Use of Innovative Pedagogical Technologies in the Development of Critical Thinking	16
<i>Gulnar Atakhanova Orinbaevna</i>	
Current Aspects of Designing and Implementing Extracurricular Educational Activities at the Primary General Education Level.....	20
<i>Amankosova Dinara Gabitovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tizimida tarbiyachi shaxsiyati va kasbiy mahorati shakllanishining nazariy asoslari....	24
<i>Axmadaliyeva Moxlaroy To'xtapolatovna</i>	
Pedagogical Model and Stages of Teaching Subjects Through a Project-Based Approach	28
<i>Bannayev Qosimjon</i>	
Lotin tili va zamonaviy tibbiy terminologiya: tarixi, vazifasi va amaliy ahamiyati	31
<i>Eshmurodova Shirin Oybekovna</i>	
Motor alaliyanning nonutqiy simptomatikasi	34
<i>Isayeva Mushtariy Alisher qizi</i>	
Talabalar etnomadaniy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik omillari	38
<i>Isomiddinov Asliddin Baxriddin o'g'li</i>	
Texnologiya darslarida o'quvchilarning texnik savodxonligini robototexnika elementlari asosida rivojlantirish.....	41
<i>Jabborova Umida</i>	
Fizika fanini mutaxassislik fanlari integratsiyasi asosida o'qitishda bo'lajak muhandislarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari	45
<i>Xayrullayev Asliddin Isatullayevich</i>	
Talaba tomonidan mutaxassislik tilini o'zlashtirishda monologik nutqni o'rgatishning samarali usullari masalasi haqida.....	51
<i>Karimov N. M.</i>	
Zamonaviy pedagog kadrlar tayyorlashda kasbiy motiv va motivatsiyaning o'rni	54
<i>Melikova Elnora Shuxratovna</i>	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlashda pragmatik kompetensiyaning roli.....	58
<i>Mustafayeva Nilufar Ulashovna</i>	
O'quvchilarda iqtisodiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik strategiyalari	62
<i>Nishonova Dilafuz</i>	
Computer-Based Formative Assessment: Advantages and Challenges in Teaching English to High School Students	66
<i>Obidjonova Shokhista Bakhtiyorovna</i>	
Metata'lim texnologiyalari asosida bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarini tayyorlash tizimini takomillashtirish.....	70
<i>O'rolboyeva Durdona Sayfiddin qizi</i>	
Sun'iy intellekt asosidagi darslarning an'anaviy darslarga nisbatan samaradorligini qiyosiy tahlil qilish.....	73
<i>Rasulev Bobirjan Atxamovich</i>	
Pedagogik faoliyatda pedagogning kasbiy taraqqiyoti motivatsiyasining psixologik xususiyatlari	78
<i>Rustamova Surayyo Shaxobiddinovna</i>	
Innovatsion kompetentlik tushunchasi va uning ilmiy-pedagogik asoslari.....	84
<i>Soliyev Eliyor Ravshan o'g'li</i>	
Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar eshituv idrokini o'yinlar yordamida rivojlantirishning samarali usullari	88
<i>Xalilova Shahnoza</i>	
Zamonaviy ta'limda kommunikativ kompetensiyaning o'rni va ahamiyati.....	92
<i>Yaqubova Nigoraxon Ibrohimjon qizi</i>	



MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA TARBIYACHI SHAXSIYATI VA KASBIY MAHORATI SHAKLLANISHINING NAZARIY ASOSLARI

Axmadaliyeva Moxlaroy To'xtapolatovna

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti stajyor-o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tizimida tarbiyachi shaxsiyati va kasbiy mahorati shakllanishining nazariy asoslari yoritilgan. Tarbiyachining shaxsiy sifatlari, pedagogik qobiliyatlari, kommunikativ ko'nikmalari hamda kasbiy mahoratni rivojlantiruvchi omillar ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, zamonaviy ta'lim jarayonida tarbiyachilarning kasbiy faoliyatini takomillashtirishda pedagogik psixologiya, shaxs taraqqiyoti nazariyalari va kompetensiyaga asoslangan yondashuvlarning ahamiyati ko'rsatib berilgan. Maqolada o'zbek va xorijiy tajribalar qiyosiy tahlil qilinib, tarbiyachi shaxsiyati va kasbiy mahoratini shakllantirishning dolzarb yo'nalishlari aniqlangan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, tarbiyachi shaxsiyati, kasbiy mahorat, pedagogik qobiliyat, shaxs taraqqiyoti, kompetensiyaga asoslangan yondashuv, pedagogik psixologiya.

Abstract: This article explores the theoretical foundations of shaping the personality and professional skills of preschool educators within the preschool education system. It provides a scientific analysis of teachers' personal qualities, pedagogical abilities, communication skills, and the factors that contribute to the development of their professional competence. Furthermore, the importance of pedagogical psychology, theories of personal development, and the competency-based approach in improving the professional performance of educators in modern educational practice is emphasized. The article also presents a comparative analysis of Uzbek and international experience, identifying the key directions in shaping the personality and professional mastery of preschool educators.

Key words: preschool education, teacher's personality, professional mastery, pedagogical abilities, personal development, competency-based approach, pedagogical psychology.

Аннотация: В данной статье раскрываются теоретические основы формирования личности и профессионального мастерства воспитателя в системе дошкольного образования. Научно проанализированы личностные качества воспитателя, его педагогические способности, коммуникативные навыки, а также факторы, способствующие развитию профессионального мастерства. Кроме того, показано значение педагогической психологии, теорий личностного развития и компетентностного подхода в совершенствовании профессиональной деятельности воспитателей в современных условиях. В статье проведён сравнительный анализ узбекского и зарубежного опыта, определены актуальные направления формирования личности и профессиональной компетентности воспитателя.

Ключевые слова: дошкольное образование, личность воспитателя, профессиональное мастерство, педагогические способности, развитие личности, компетентностный подход, педагогическая психология.

KIRISH

Maktabgacha ta'lim tizimi jamiyat taraqqiyotining muhim bo'g'ini bo'lib, unda tarbiyachi shaxsiyati va kasbiy mahorati hal qiluvchi o'rin tutadi. Chunki maktabgacha yoshdagi bolalar uchun yaratiladigan tarbiyaviy muhit, ularning dastlabki ijtimoiylashuv jarayoni hamda shaxsiy sifatlarining shakllanishi bevosita tarbiyachining kasbiy tayyorgarligi va insoniy fazilatlariga bog'liqdir. Shu bois, maktabgacha ta'lim muassasalarida faoliyat yurituvchi pedagoglarning shaxsiy fazilatlarini, kasbiy kompetensiyalari va mahorati ilmiy-nazariy jihatdan chuqur o'rganilishini talab etadi.

Bugungi globallashuv sharoitida ta'lim sohasida bo'layotgan islohotlar, ilg'or xorijiy tajribalarni o'zlashtirish jarayonlari ham tarbiyachi shaxsiyati va mahoratiga yangi talablarni qo'yimoqda. Tarbiyachidan nafaqat bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish, balki ijodkorlik, tashabbuskorlik, bolaga individual yondashuv, ota-onalar bilan samarali hamkorlik kabi qator sifatlarni o'zida mujassamlashtirishi talab qilinadi.



Shu nuqtayi nazardan, tarbiyachi shaxsiyati va kasbiy mahorati shakllanishining nazariy asoslarini o'rganish nafaqat pedagogika fanining dolzarb masalasi, balki amaliy ta'lim-tarbiya jarayonida sifatni ta'minlashning muhim omili sifatida qaraladi. Ushbu maqolada aynan shu masalaning ilmiy-nazariy tahlili amalga oshiriladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha ta'lim tizimida tarbiyachining shaxsiyati va kasbiy mahorati masalasi ilmiy izlanishlarda alohida o'rin tutadi. Tarbiyachi shaxsining barkamolligi, uning kasbiy tayyorgarligi va mahorati ta'lim-tarbiyaning samaradorligini belgilovchi eng muhim omillardan biri sifatida ko'riladi. Shu bois, ushbu masala jahon va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan turli nuqtayi nazardan o'rganilgan.

Jahon tajribasida tarbiyachining shaxsiy fazilatlari, kasbiy kompetensiyalari va pedagogik mahoratini rivojlantirish masalalari ko'plab psixolog va pedagog olimlar tomonidan tahlil qilingan. Xususan, J. Dyui, M. Montessori, L. S. Vygotskiy, A. N. Leontyev singari mutaxassislarning ishlari bolalar tarbiyasida tarbiyachi shaxsining ta'sirchan roli, uning kommunikativ ko'nikmalari va individual yondashuvning ahamiyatini yoritadi^[3]. Montessori metodikasida pedagogning faqat bilim beruvchi emas, balki bolaning erkin rivojlanishini qo'llab-quvvatlovchi shaxs sifatida ko'rilishi tarbiyachi shaxsiyatini shakllantirishda muhim manba hisoblanadi.

O'zbekistonlik olimlar ham bu yo'nalishda qator ilmiy izlanishlar olib borganlar. Jumladan, A. Avloniy, K. Munavvarov, N. G'aniev, S. Ochilova, D. Umirova kabi tadqiqotchilar pedagog shaxsiyati, kasbiy tayyorgarlik va mahorat masalalarini chuqur o'rganganlar. Ularning tadqiqotlarida tarbiyachining ma'naviy-axloqiy sifatleri, kasbiy kompetensiyalari, kommunikativ malakalari va pedagogik madaniyatini rivojlantirishning nazariy hamda amaliy jihatlari yoritilgan^[10].

So'nggi yillarda olib borilgan ilmiy ishlarda tarbiyachilarning shaxsiyati va kasbiy mahoratini shakllantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalar, modul asosidagi ta'lim tizimi, mustaqil ta'lim va uzluksiz kasbiy rivojlanish kabi omillar alohida o'rganilmoqda. Bu borada xalqaro tajriba va mahalliy metodikalar integratsiyasi ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Mavjud adabiyotlar sharhi shuni ko'rsatadiki, tarbiyachi shaxsiyati va kasbiy mahoratini shakllantirish nazariy jihatdan yetarlicha asoslangan bo'lsa-da, amaliyotda ushbu jarayonni yanada samarali tashkil etish uchun innovatsion yondashuvlarga ehtiyoj mavjud. Shu nuqtayi nazardan, mazkur mavzuni chuqur tadqiq etish dolzarbdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda maktabgacha ta'lim tizimida tarbiyachi shaxsiyati va kasbiy mahorati shakllanishining nazariy asoslarini chuqur o'rganish maqsadida bir qator metodologik yondashuvlardan foydalanildi.

Birinchidan, ilmiy-nazariy tahlil usuli qo'llanilib, maktabgacha ta'lim, pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha ilg'or nazariy manbalar, ilmiy maqolalar va monografiyalar o'rganildi. Bu orqali tarbiyachi shaxsiyati va kasbiy mahoratini shakllantiruvchi omillar, zamonaviy pedagogik yondashuvlar aniqlashtirildi.

Ikkinchidan, qiyosiy tahlil metodidan foydalanildi. Turli mamlakatlarda maktabgacha ta'lim sohasida tarbiyachilarni tayyorlash, ularning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish tajribalari solishtirildi va o'zbek ta'lim tizimi uchun muhim xulosalar chiqarildi.

Uchinchidan, psixologik-pedagogik kuzatuv usuli qo'llanib, amaliyot jarayonida tarbiyachilarning bolalar bilan ishlashdagi yondashuvlari, shaxsiy va kasbiy sifatleri tahlil qilindi.

To'rtinchidan, anketa va suhbat metodlari yordamida tarbiyachilarning kasbiy o'zini anglash darajasi, shaxsiy fazilatlari hamda kasbiy mahoratni rivojlantirishga oid qarashlari o'rganildi.

Beshinchidan, tajriba-sinov metodlari orqali nazariy xulosalarning amaliyotda qo'llanish imkoniyatlari tekshirildi. Bu jarayonda tarbiyachilarning kasbiy mahoratini shakllantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalarning samaradorligi o'rganildi.

Yuqoridagi metodlar yordamida tarbiyachining shaxsiyati va kasbiy mahorati shakllanishi jarayoni nazariy va amaliy jihatdan yoritilib, ilmiy asoslangan xulosalar chiqarildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Maktabgacha ta'lim tizimida tarbiyachi shaxsiyati va kasbiy mahorati shakllanishi dolzarb ilmiy-pedagogik muammolardan biridir. Chunki bola shaxsining dastlabki ijtimoiylashuvi, nutq va tafakkur rivoji, axloqiy qarashlari aynan tarbiyachi faoliyati bilan chambarchas bog'liqdir. Tarbiyachining kasbiy mahorati faqatgina metodik bilim va ko'nikmalar majmui emas, balki u o'zida shaxsiy fazilatlari, ijtimoiy qadriyatlarga sodiqlik va ijobiy psixologik xususiyatlarni mujassam etishi bilan ham belgilanadi.

Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, tarbiyachi shaxsiyatining shakllanishida uch asosiy mezon muhim:

- *birinchidan*, shaxsiy-axloqiy fazilatlar,
- *ikkinchidan*, kasbiy-pedagogik bilim va ko'nikmalar,
- *uchinchidan* esa kommunikativ hamda psixologik madaniyat.

Bu uchlik uyg'un bo'lmagan taqdirda, tarbiyachining kasbiy faoliyati kutilgan samarani bermaydi.

O'tkazilgan kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan ko'plab tarbiyachilar metodik ko'nikmalarga ega bo'lsalar-da, psixologik muhit yaratish, bolalarni individual qabul qilish va muloqot madaniyatida ayrim qiyinchiliklarga duch kelishmoqda. Xususan, bolalar bilan individual yondashuvni ta'minlash, stressli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish va ota-onalar bilan samarali muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirish zarurati mavjud.

Xorijiy tajribalar ham shuni ko'rsatadiki, zamonaviy ta'lim tizimida tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalari bilan bir qatorda shaxsiy rivojlanishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Masalan, Germaniya va Skandinaviya davlatlarida tarbiyachilarni tayyorlashda empatiya, jamoada ishlash ko'nikmalari va liderlik qobiliyatlarini rivojlantirish asosiy yo'nalishlardan biri sifatida belgilanadi. Bu yondashuv tarbiyachining nafaqat bilimli, balki bolalarga mehribon, ijtimoiy faol va ijodkor shaxs sifatida namuna bo'lishini ta'minlaydi.

O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlar jarayonida ham tarbiyachining shaxsiy va kasbiy sifatlarini uyg'un rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar ko'zga tashlanmoqda. Xususan, pedagogik oliy ta'lim muassasalarida amaliyot darslarining kengaytirilishi, psixologik tayyorgarlikka urg'u berilishi hamda kompetensiyaga asoslangan yondashuv asosida dasturlar ishlab chiqilishi bunga yorqin misoldir.

Tarbiyachining shaxsiyati va kasbiy mahorati nafaqat bolalar ta'lim-tarbiyasiga, balki jamiyatning ijtimoiy-madaniy rivojiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Chunki maktabgacha yosh davrida shakllangan bilim, ko'nikma va qadriyatlar keyingi ta'lim bosqichlari uchun poydevor vazifasini bajaradi. Shunday ekan, tarbiyachilarni tayyorlash jarayonida nafaqat nazariy bilimlarni, balki shaxsiy fazilatlarini ham rivojlantirishga ustuvor e'tibor qaratish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim tizimida tarbiyachining shaxsiyati va kasbiy mahorati bolalarning intellektual, axloqiy va ijtimoiy rivojlanishida hal qiluvchi omil sifatida e'tirof etiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tarbiyachining kasbiy tayyorgarligi nafaqat metodik bilim va ko'nikmalardan iborat, balki uning shaxsiy fazilatlarini – mehribonlik, sabr-toqat, tashabbuskorlik va kommunikativ madaniyat bilan chambarchas bog'liqdir.

O'tkazilgan kuzatuv va tahlillar shuni isbotladiki, tarbiyachi shaxsiyatidagi ijobiy fazilatlar bolalarda mustaqillik, o'ziga ishonch va muloqotga ochiqlikni shakllantirishga yordam beradi. Masalan, tarbiyachining nutq madaniyati va pedagogik muloqot uslubi bolalarda til rivojlanishi hamda ijtimoiy munosabatlarning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Qiyosiy tahlil asosida aniqlanishicha, xorijiy mamlakatlarda tarbiyachilarni tayyorlash jarayonida ularning kasbiy kompetensiyalaridan tashqari shaxsiy rivojlanishga ham katta e'tibor beriladi. Masalan, Finlyandiya va Yaponiya tajribasida tarbiyachining empatiya, liderlik va muammoli vaziyatlarni boshqarish ko'nikmalarini shakllantirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida qaraladi. O'zbekistonda ham oxirgi yillarda pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonida shaxsiy va kasbiy sifatlarining uyg'un rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan islohotlar olib borilmoqda.

Semantik va diskurs tahlillari shuni ko'rsatdiki, tarbiyachining bolalar bilan kundalik muloqotida qo'llaydigan lingvistik vositalari bolaning psixologik iqlimiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, rag'batlantiruvchi iboralar, mehribon ohang va ijobiy psixologik muhit bola o'zini erkin his etishiga yordam beradi. Aksincha, salbiy nutq shakllari va keskin ohang bola ruhiyatida qo'rquv va ishonchsizlikni yuzaga keltirishi mumkin.


Tadqiqot natijalariga ko'ra, maktabgacha ta'lim tizimida tarbiyachi shaxsiyatini shakllantirish jarayonida uch asosiy yo'nalishga e'tibor qaratish zarur:

1. **Axloqiy va ma'naviy tarbiya** – tarbiyachining halollik, mehribonlik va mas'uliyat kabi insoniy qadriyatlarni o'zlashtirishi va amalda qo'llashi.
2. **Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish** – metodik bilimlar, innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish va ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish ko'nikmalari.
3. **Shaxsiy fazilatlarini shakllantirish** – kommunikativ madaniyat, stressga chidamlilik, ijodkorlik va empatiya kabi sifatlarini rivojlantirish.

Xususan, empirik kuzatishlar natijasida aniqlanishicha, tarbiyachilarning aksariyatida kasbiy bilim va metodik ko'nikmalar yetarli darajada shakllangan bo'lsa-da, shaxsiy fazilatlar, jumladan, kommunikativ madaniyat va konfliktlarni boshqarish ko'nikmalari ustida ishlashga ehtiyoj mavjud. Bu esa kelajakda tarbiyachilarni tayyorlashda psixologik-pedagogik tayyorgarlikka alohida e'tibor qaratishni talab etadi.



Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tarbiyachi shaxsiyati va kasbiy mahorati shakllanishining nazariy asoslari integratsiyalashgan holda o'rganilishi zarur. Chunki bolalarning har tomonlama rivojlanishi faqat bilim berish emas, balki mehribon va yetuk shaxs sifatida namuna bo'la oladigan tarbiyachiga ham bog'liqdir.



Tadqiqot natijalari asosida tarbiyachi shaxsiyati va kasbiy mahorati shakllanishiga ta'sir etuvchi uch asosiy omil aniqlangan. Ularning ahamiyat darajasi foizlarda quyidagicha taqsimlandi: kasbiy-pedagogik bilimlar – 90%, axloqiy-ma'naviy fazilatlar – 85%, kommunikativ va psixologik madaniyat – 75%. Ushbu ko'rsatkichlar tarbiyachining kasbiy faoliyatida metodik tayyorgarlik yetakchi o'rinda ekanini ko'rsatadi. Shu bilan birga, shaxsiy fazilatlar va kommunikativ madaniyat ham bola rivojlanishi uchun muhim omillar sifatida namoyon bo'lmoqda. Demak, tarbiyachilarni tayyorlash jarayonida nazariy bilimlar bilan bir qatorda shaxsiy-axloqiy va psixologik tayyorgarlikni ham takomillashtirish zaruriyati mavjud.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, maktabgacha ta'lim tizimida tarbiyachi shaxsiyati va kasbiy mahorati bolalarning har tomonlama rivojlanishi uchun asosiy omil hisoblanadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, tarbiyachining kasbiy-pedagogik bilimlari yetakchi ahamiyatga ega bo'lsa-da, axloqiy-ma'naviy fazilatlar, shuningdek, kommunikativ va psixologik madaniyat kabi omillar ham bola tarbiyasida beqiyos rol o'ynaydi. Shunday ekan, tarbiyachilarni tayyorlash jarayonida nafaqat metodik bilimlarni, balki shaxsiy sifatlarni ham shakllantirishga ustuvor e'tibor qaratish lozim.

Kasbiy tayyorgarlik va shaxsiy rivojlanish uyg'unligi tarbiyachiga o'z faoliyatida samarali bo'lish, bolalar bilan ijobiy psixologik muhit yaratish, ota-onalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish imkonini beradi. Shu nuqtayi nazardan, maktabgacha ta'lim tizimida tarbiyachilarni tayyorlash va ularning kasbiy malakasini oshirishda integratsiyalashgan yondashuvni qo'llash bugungi kunning dolzarb vazifasi sifatida e'tirof etilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bronfenbrenner U. The Ecology of Human Development. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1979. – 330 p.
2. Epstein A. The Intentional Teacher: Choosing the Best Strategies for Young Children's Learning. – Washington, DC: NAEYC, 2007. – 192 p.
3. Hasanboeva O. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2010. – 256 b.
4. Karimova V. Psixologiya. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2004. – 284 b.
5. Montessori M. The Montessori Method. – New York: Schocken Books, 1964. – 372 p.
6. Piaget J. The Child's Conception of the World. – London: Routledge, 1929. – 246 p.
7. Siraj-Blatchford I. Supporting Identity, Diversity and Language in the Early Years. – Maidenhead: Open University Press, 2000. – 210 p.
8. Vygotsky L. Mind in Society. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. – 159 p.
9. Yo'ldoshev J. Pedagogik mahorat asoslari. – Toshkent: Fan, 2015. – 312 b.
10. Zunnunov A. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2018. – 198 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.